



2019 yilning yanvar-sentyabr oylarida 13698 ta faoliyat yuritayotgan korxonalar bo'lsa, 2941 ta yangi kichik va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarsiz) tashkil qilindi.

Faoliyat yuritayotgan korxonalardan eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar savdo tarmog'ida (25,5 %), sanoat tarmog'ida (19,8 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida (17,8 %), qurilish tarmog'ida (12,9 %), tashish va saqlash (4,2%), yashash ovqatlanish bo'yicha xizmat (7,8%), axborot va aloqa (1,2%), sog'liqni saqlash va xizmatlar ko'rsatish (1,2%) va boshqa turlari (9,6 %) tashkil etgan.

2019 - yil yanvar - sentyabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, foizda




Joriy yilning yanvar-sentyabr oyida hududlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda.



2019 yilning yanvar-sentyabr oylarida yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalar hududlar bo'yicha eng ko'p Jizzax shahrida - 893 ta, Sharof Rashidov tumanida - 511 ta, Zomin tumanida - 261 ta, G'allaorol tumanida - 229 ta, Forish tumanida - 204 ta, Zarbdor - 135 ta, Baxmal tumanida - 128 ta, Paxtakor - 122 ta, Do'stlik - 116 ta, Arnasoy va Mirzacho'l - 104 tadan, Zafarobod - 68 ta va Yangiobod - 66 tani ashkil etgan.


2019 yil yanvar-sentyabr holatiga yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, foizda




2019 yil yanvar-sentyabr holatiga hududlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulush Jizzax.sh ga - 30,4 %, Sharof Rashidov tumani- 17,4 %, Zomin tumani 8,9 %, G'allaorol tumani - 7,8 %, Forish tumani - 6,9 %, Zarbdor tumani - 4,6 % eng past ko'rsatkich Zafarobod tumanida - 2,3 %, Yangiobod tumanida 2,2 % ni tashkil etdi.

2019 yil yanvar-sentyabr holatiga yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, foizda

Kichik tadbirkorlik (biznes)ning eng
kichik ulushi



Kichik tadbirkorlik (biznes)ning eng katta ulushi




● Yangiobod ● Zafarobod ● Arnasoy ● Baxmal
● Mirzacho'l ● Do'stlik ● Paxtakor ● Zarbdor

● Jizzax sh. ● Sharof Rashidov ● Zomin ● G'allaorol
● Forish ● Zarbdor


2019 yil yanvar-sentyabr holatiga hududlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulush Jizzax.sh ga - 30,4 %, Sharof Rashidov tumani- 17,4 %, Zomin tumani 8,9 %, G'allaorol tumani - 7,8 %, Forish tumani - 6,9 %, Zarbdor tumani - 4,6 % eng past ko'rsatkich Zafarobod tumanida - 2,3 %, Yangiobod tumanida 2,2 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda




2019 yil yanvar-sentyabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalar eng ko'p savdo tarmog'ida - 953 ta, sanoatda - 658 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 464 ta, qurilishda - 385 ta, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar - 142 ta.


2019 yil yanvar-sentyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda




2019 yilning yanvar-sentyabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)




Kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)




Joriy yilning yanvar-sentyabrdagi iqtisodiyot tarmoqlarida kichik tadbirkorlik (biznes)ning sanoatdagi ulushi 66,4 %, qurilishda - 97,8 %, investitsiyada - 59,8 %, savdoda - 91,0 %, eksportda - 68,7 %, importda - 96,6 % va xizmatlar sohasidagi - 63,2 %, Qishloq,o'rmon va baliq xo'jaligi - 99.7% ulushi aniq ko'rsatilgan.




Kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushining pasayishi dinamikasi (yanvar-sentyabr holatiga, %da)



Tarmoqlarda kichik tadbirkorlikninig ulushi (umumiy hajmiga nisbatan foizda)




2019 yil yanvar-sentyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha kichik tadbirkorlikning ulushi, foizda



● Sanoat ● Qurilish ● Xizmatlar ● Investitsiya

Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 2291,9 mlrd. so'mni tashkil etib, jami sanoat ishlab chiqarishining 66,4 foizi kichik biznes sub`ektlatari xissasiga to'g'ri keldi.



3542,1 mlrd. so'mlik investitsiyalar (umumiyligi investitsiyalar hajmining 59,8 foizi) o'zlashtirildi va 2018 yilning yanvar-sentyabrga nisbatan o'sish 205,4 foizni tashkil qildi.


1597,8 mlrd. so'mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiyligi hajmining 97,8 foizi) bajarildi va 2018 yilning yanvar-sentyabrga nisbatan o'sish sur'ati 125,2 foizni tashkil qildi.



1881,4 mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatilib (viloyat jami xizmatlarxajmining 63,2 foizi), 2018 yilning yanvar-sentyabrga nisbatan o'sish sur'ati 106,7 foizni tashkil qildi.

chakana tovar aylanmasi umumiyligi hajmining 91,0 foizi yoki 3712,1

mlrd. so'mi (o'sish sur'ati 106,5 foizni tashkil qildi) shakllantirildi.




64,2 mln. AQSh dollarasi (umumiyligi eksport hajmining 68,7 foizi) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi. 299,2 mln. AQSh dollarasi (umumiyligi import hajmining 96,6 foizi) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) import qilindi.

avtomobil transporti yuk aylanmasining 105,2 foizga (viloyat jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 105,2 foizi), yo'lovchi aylanmasining esa 102,7 foizga (umumiyligi yo'lovchi aylanmasining 102,7 foizi) o'sishi ta'minlandi.




2019 yil yanvar-sentyabr oylarida kichik tadbirkorlikdagi eksport (tovar,xizmat)larning, jami eksport hajmidagi ulushi, foizda




2019 yil yanvar-sentyabr holatiga hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlikdagi eksport (tovar,xizmat)larning jami eksportdagisi eng ko'p ulushi Yangiobod, Forish, Mirzacho'l, Zomin, G'allaorol, Baxmal va Sharof Rashidov (100,0 %) tumanlari eng past ko'rsatkichni Do'stlik (22,8 %) va Paxtakor (17,1 %) tumanlari tashkil etdi.

2019 yil yanvar-sentyabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi, mlrd.so'm




Hududlar bo'yicha eng ko'proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Jizzax shahri (1226,6 mlrd.so'm), Sharof Rashidov (208,1 mlrd.so'm), Zomin (205,5 mlrd.so'm) va Forish (134,4 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.Zafarobod (34,4 mlrd.so'm) va Yangiobod tumanlarida (42,4 mlrd.so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.

2019 yil yanvar-sentyabrda hududlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati




Hududlar bo`yicha ko'proq chakana to var aylanmasihajmi Jizzax shahri (858,4 mlrd.so'm), Zomin (638,8 mlrd.so'm), Sharof Rashidov (593,8 mlrd.so'm), va G'allaorol (312,5 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

2019 yil yanvar-sentyabrdagi hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati




Hududlar bo'yicha eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Jizzax shahri (701,9 mlrd.so'm), Sharof Rashidov (235,6 mlrd.so'm), G'allaorol (116,1 mlrd.so'm) va Paxtakor (112,2 mlrd.so'm) tumanlarida qayd etildi.

2019 yil yanvar-sentyabrdagi hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi va o'sish sur'ati




Hududlar bo'yicha eng ko'p asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi Jizzax shahri (1097,6 mlrd.so'm), Forish (584,8) Sharof Rashidov (273,2 mlrd.so'm), Mirzacho'l (232,7 mlrd.so'm) va Gallaorol (231,7 mlrd.so'm) tumanlarida qayd etildi.

2019 yil yanvar- sentyabrda hududlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o'sish sur'ati




Hududlar bo`yicha ko'proq xizmatlarhajmi Jizzax shahri (619,0 mlrd.so'm), SHarof Rashidov (248,6 mlrd.so'm), Do'stlik (168,2 mlrd.so'm) G'allaorol (180,7 mlrd.so'm), va Zomin (131,6 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

2019 yil III - chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi



Hududlar kesimida jami kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarining ulushi Jizzax shahrida - 24,1 % (20 ta), SHarof Rashidov tumanida - 24,1 % (20 ta), G'allaorol tumanida - 9,6 % (8 ta), Zomin tumanida - 9,6 % (8 ta), Forish tumanida - 8,4 % (7 ta), Baxmal tumanida - 4,8 % (4 ta), Do'tlik, Zarbdor va Paxtakor tumanida - 3,6 % (3 ta), Arnasoy, Mirzacho'l va Zafarobod tumanida - 2,4 % (2 ta), Yangiobod tumanida - 1,2 % (1 ta)ni tashkil qildi.

**2019 yil yanvar-sentyabr oylarida iqtisodiy vaziyatdagi
o'zgarishlar istiqbolini yaqin uch oyda baholanishi, foizda**



Tahlil natijalaridan kelib chiqib, yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yahshilash uchun ko'rilibotgan chora tadbirlar natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiyligida iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.

**Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari,
tadbirkorlikni rivojlantirish statistikasi bo'limi**

**Nashr uchun mas'ul: M.Usmonqulov
Tel.: (0371) 230-83-43, 230-83-61**